Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

QATAG‘ON DAVRI TARIXINING MILLIY XOTIRA VA O‘ZLIKNI ANGLASHDAGI AHAMIYATI

Akmalxon Axatjonovich Sayitxonov[a,*], Sevaraxon Muhammadjon qizi Normatova[b]

[a] *Farg‘ona davlat universiteti f.f.b.f.d (PhD)*
[b] *FarDU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 3-kurs talabasi*
✉ sayitxonovakmalxon@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qatag‘on davri tarixining milliy xotirani shakllantirish va milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Qatag‘on siyosatining jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ta’siri, tarixiy xotirani asrab-avaylash, qatag‘on qurbonlari xotirasini tiklash hamda yosh avlodda milliy o‘zlik va tarixiy ongni shakllantirish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda qatag‘on davri tarixini xolis o‘rganish milliy o‘zlikni anglash, tarixiy adolatni qaror toptirish va ma’naviy merosni avlodlarga yetkazishning muhim omili sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar

qatag‘on davri, qatag‘on qurbonlari, milliy xotira, milliy o‘zlik, tarixiy ong, tarixiy adolat, ma’naviy meros, tarixiy xotirani tiklash, milliy qadriyatlar, avlodlar davomiyligi.

DOI: 10.5281/zenodo.23279231

KIRISH

“Tarixni bilmagan millat — kelajagini qura olmaydi”, deydi dono xalqimiz. Mustaqillik yillarida milliy davlatchiligimizni mustahkamlash, jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit barpo etish vazifasi o‘z-o‘zidan tarixiy xotirani tiklash masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Shu nuqtayi nazardan, XX asrning 20–50-yillarida xalqimiz boshidan kechirgan siyosiy qatag‘onlar davri – faqat o‘tmishga oid fojiali voqealar majmui bo‘libgina qolmay, milliy o‘zlikni anglash, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqadorlikni tiklash va mamlakatimiz kelajagini sog‘lom asosda qurish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy-siyosiy hodisadir. Mazkur maqolada qatag‘on davrining mohiyati, uning tarixiy xotira tizimidagi o‘rni hamda mustaqillik yillarida bu borada amalga oshirilayotgan davlat siyosati tahlil etiladi.

Sovet mustabid tuzumi tomonidan 1920-yillar oxiridan boshlab amalga oshirilgan ommaviy siyosiy ta’qiblar o‘z mohiyatiga ko‘ra milliy ziyolilarni, diniy arboblarni, mustaqil fikr yurituvchi shaxslarni jismonan yo‘q qilishga qaratilgan edi. Ayniqsa, kollektivlashtirish davrida dehqonlar “boyvachchalik”da ayblanib surgin etilgan bo‘lsa, jadidchilik harakati vakillari esa “millatchilik” va “panislomizm”da ayblanib qatag‘on qilindi.

Qatag‘on siyosatining eng fojiali, “Katta qirg‘in” deb nom olgan bosqichi 1937–1938 yillarga to‘g‘ri keladi. Aynan shu davrda mamlakatimizning eng sara ziyolilari – olimlar, yozuvchilar, davlat arboblari qatag‘onga uchradi [1.3].

Umuman olganda, tarixchilar qatag‘on jarayonini bir necha bosqichga ajratadilar. 1929–1936 yillardagi dastlabki ta’qiblar, 1937–1938 yillardagi “Katta qirg‘in”, 1940–1950 yillardagi ikkinchi to‘lqin hamda 1980-yillardagi “Paxta ishi” bahonasida o‘tkazilgan siyosiy qatag‘onlar [2.7].

Bu davr mohiyatan millatning eng faol, tafakkurli qatlamini, tom ma’noda uning “miya”sini yo‘qotish siyosati edi. Zotan, mustabid tuzum uchun millat ko‘zini ochadigan, unga o‘zligini tanitadigan ziyoli insonlar

kerak emas edi. Shu bois qatag‘on tarixini xolis o‘rganish, nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki millat ma’naviy-intellektual salohiyatining qanday yo‘qotilganini anglash imkonini beradi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda “tarixiy xotira” tushunchasi jamiyatning o‘tmish voqealarini saqlash, qayta anglash va avloddan-avlodga uzatish jarayonini anglatadi. Bu tushunchaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlar ta’kidlashicha, kollektiv xotira shaxs yoki alohida guruhning emas, balki butun jamiyatning o‘zligini belgilovchi muhim omildir.

Milliy o‘zlikni anglash jarayoni, o‘z navbatida, tarixiy xotirasiz amalga oshmaydi. Chunki millat o‘zining kim ekanini, qayerdan kelib, qanday sinovlardan o‘tganini anglamasdan turib, kelajakka ishonchli qadam tashlay olmaydi. Ana shu ma’noda qatag‘on davrining tarixi fojiali bo‘lsa-da – milliy xotiraning ajralmas qismi sifatida, xalqimizning mustaqillikka erishish yo‘lidagi fidokorona kurashini, uning ma’naviy-intellektual salohiyatini namoyon etuvchi muhim manbadir.

O‘tmishni, xususan uning og‘riqli sahifalarini inkor etish yoki unutish –millat xotirasida bo‘shliq hosil qiladi, bu esa o‘z navbatida yosh avlodning o‘z tarixiy ildizlaridan uzilib qolishi, milliy o‘zlikni anglashda bo‘shliqlar paydo bo‘lishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois davlat siyosati darajasida tarixiy adolatni tiklash, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar aynan mana shu ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish borasida izchil davlat siyosati yuritib kelinmoqda. 1999 yil iyul oyida hukumat qarori asosida “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi tashkil etildi, 2000 yil 12 mayda esa Toshkent shahrida shu nomdagi yodgorlik majmuasi barpo etildi. 2001 yil 1 may kuni qabul qilingan maxsus Farmon bilan har yili 31 avgust “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” sifatida belgilandi va shu asosda “Shahidlar xotirasi” majmuasida “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi tashkil etildi.

Keyingi yillarda bu boradagi ishlar yanada keng quloch yozdi. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda mazkur muzeyning filiallari ochildi, jumladan Qashqadaryo viloyatidagi filial tarixiy Odina masjidi binosida joylashtirildi.

2020 yil 8 oktyabrda qabul qilingan Farmoyish bilan qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish, ularning to‘liq ro‘yxatini aniqlash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi. Shu asosda tarixchi olimlar jalb etilgan holda davlat komissiyalari tashkil etilib, arxiv hujjatlarini o‘rganish ishlari jadallik bilan davom ettirilmoqda.[3.5]

Bugungi kunda mamlakatimizda har yili oktyabr oyining birinchi haftasi “Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish” haftaligi sifatida nishonlanadi. Bu esa davlatimizning tarixiy adolatni tiklash, qatag‘on qurbonlari xotirasini avlodlar ongida mustahkamlash borasidagi izchil va tizimli siyosatidan dalolat beradi.

Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan ham so‘nggi yillarda qatag‘on davriga oid ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda, arxiv hujjatlari asosida qatag‘on qurbonlarining taqdirlari xolisona yoritilmoqda.

Yurtboshimiz tomonidan takror-takror ta’kidlanganidek, o‘tmishsiz kelajak bo‘lmaydi va tarixni chuqur anglamay turib yorqin istiqbol sari yurishning imkoni yo‘q. “Bu borada ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki, ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”[4.262] deb ta’kidlaydi. Aynan shu bois yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalashda tarixni, jumladan uning eng murakkab va og‘riqli sahifalarini ham xolisona o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Qatag‘on davrining tarixini o‘rganish yosh avlodda bir qator muhim fazilatlarni shakllantiradi. Birinchidan, mustabid tuzumlarning inson qadrini oyoqosti qiluvchi mohiyatini anglash orqali yoshlarni huquqiy va fuqarolik ongi yuksaladi. Ikkinchidan, millatning eng sara farzandlari – Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy kabi ziyolilarning fidokorona faoliyati bilan tanishish orqali milliy iftixor tuyg‘usini mustahkamlaydi. Uchinchidan, tarixiy voqealarni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllanadi va rivojlantiradi. Oliy ta’lim muassasalarida, jumladan gumanitar fanlar va milliy g‘oya yo‘nalishidagi kafedralarda qatag‘on davriga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini izchil ko‘paytirish, talaba-yoshlar o‘rtasida bunday mavzularda ma’rifiy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlarini ilmiy asoslarda tashkil etish – milliy xotirani saqlash va uni kelajak yosh avlodlarga keng qamrovli tarzda uza-

tishning muhim vositalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, qatag‘on davri tarixi –millatimiz o‘tmishidagi eng og‘riqli, ayni paytda eng saboqli sahifalardan biridir. Bu tarixni xolis va chuqur o‘rganish, qurbonlar xotirasini abadiylashtirish borasidagi davlat siyosatini izchil davom ettirish, milliy xotirani tiklash, jamiyatda tarixiy adolat tuyg‘usini mustahkamlash hamda, eng muhimi, yosh avlodda sog‘lom milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishning zaruriy shartidir. Zero, o‘z o‘tmishini uning zafarlari bilan birga fojialarini ham teran anglagan millatgina ishonchli va barqaror kelajak qura oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 1938 yil 4–16 oktyabr kunlari 507 nafar O‘zbekistonlik siyosiy mahbus ustidan hukm o‘qilgan, ular orasida Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Xudoybergan Devonov kabi yetuk ziyolilar bo‘lgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligidagi ma’ruzasi. — Manba: president.uz

2. Jizzax shahridagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ekspozitsiyasi 8 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, 1929–1936, 1937–1938 (“Katta qirg‘in”), 1940–1950 hamda 1980-yillardagi “Paxta ishi” qatag‘on bosqichlarini o‘z ichiga oladi. — Manba: gov.uz/jizzax, 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 oktyabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi

4. Ш.М.Мирзиёев. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. “O’zbekiston” Тошкент.-2024. 560-б.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1 maydagi “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida”gi Farmoni.

6. Shamsutdinov R., Rajabov Q. Vatan tarixi (XX asr): darslik-majmua. — Toshkent: Sharq.2018. 370-b.